

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL'TETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN

Mavzu: IX-XII asr boshlarida o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi.

REFERAT

Bajardi:

Abdullaeva G

Tekshirdi :

Soipov U.Z

Samarqand- 2014

Reja:

1. Toxiriylar davlati va uning o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni.
2. Somoniylar davlati davlatchiligi.
3. Qoraxoniylar davlatchiligi tarixi
4. Xorazmshoxlar davlatida siyosiy tuzum, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot.

1. Toxiriylar davlati va uning o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni.

IX-XII asrlarda O'zbekiston xududida turli boshqaruv usullari va ma'muriy tizimiga ega bo'lgan turli sulolalar boshqargan bir qancha davlatlar hukm surdi. Xalifalikka qarshi kuchayib borayotgan qo'zg'olonlar xalifalarning maxalliy zodagonlarga bog'liqligini kuchaytirib yubordi va viloyatlarni boshqarishda maxalliy zodagonlarning roli ortdi. Shu jarayon oqibatid Xurosonda toxiriylar xonadoni hukmron mavqeni egallay boshladi. Sijiston (Seiston) xokimi Abulmuxammad Talxa ibn Abdullox qo'lida xizmat qilgan Rozik shu xonadon boshlig'i bo'lib, uning Musxab, Xusayn va toxir ismli o'g'illari bo'lgan. Ular birgalikda Xirot viloyatidagi Bo'shanj shaxrini boshqarganlar.

Xorun ar Rashid (786-809) vafotidan so'ng uning o'g'li Amin xalifa bo'ldi. Bu vaqtda Xurosonda noiblik qilayotgan Abdullox (keyinchalik Maxmun laqabini olgan) toxir qo'shinlari yordamida taxtni akasidan tortib oladi. Maxmun xalifa bo'lgach, 813 y toxirni sipoxsalor, 821 yil esa Xuroson noibi etib tayinlaydi. Toxir vafotidan so'ng Xurosonni Talxa (828-844) boshqardilar. Abdullox o'zini xalifalikdan mustaqil deb e'lon qildi va Marv (keyinchalik Nishodur) davlat poytaxti bo'ldi. Toxiriylar davlatiga ko'ra tabariston, Jurjon, Ray, Kimron, Xuroson, Seyiston, Movarounnaxrning Janubiy qismi kirgan. Garchi, xalifa Maxmunga o'z xizmatlari evaziga Somonxudot nabiralari Movarounnaxr viloyatlarini (Nux-Samarqand, Axmad_Farg'ona:, Yaxyo-Choch, Istaravshan, Ilyos-Xirot) boshqarish xuquqini qo'lga kiritgan bo'lsalarda, Toxiriylar davlatiga qaram edilar.

IX asr o'rtalarida quyi tabaqadan bo'lgan Safforiylar mavqei kuchaydi. Yaxqub ibn Lays va uning Amir, Toxir, Ali ismli ukalari bilan birgalikda 861 yil Sijistonni, 867 yil Xirot va Bushanjni, 869 yil Kirmon va Forsni qo'lga kiritdilar. Xurosonda eng yuqori mavqega erishgan safforiylarga xalifa Muxtamid (870-892) Yaqubni Balx va toxariston xokimi etib tayinlash to'g'risida erlik jo'natdi. 873 bil Yaxqub toxiriylar xukumdori Muxammad ibn toxir qo'shinlarini mag'lubiyatga

uchratib, toxiriylar davlatiga barxam berdi. Toxiriylar sulolasi vakillari quydagilardan iborat: toxir ibn Xusayn 821-822.

Talxa ibn Toxir 822-828.

Abdullox ibn Toxir 830-844.

Toxir II ibn Abdullox 844-862.

Muxammad ibn Toxir 862-873.

Toxir ibn Xusayn Xuroson noibi bo'lgan vaqtda Nishopur davlat markazi edi. Shu vaqtda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan: Movarounnaxr, Xorazm, Seyiston, Kuxiston, Kirmon, Kumis, Tabariston, Jurjon. Xar bir viloyat o'z navbatida bir qancha ma'muriy birliklarga bo'lingan. Jumladan, Movarounnaxrda 300000 qishloq mavjud bo'lib, ular 30 dan ortiq ma'muriy birlikka bo'lingan. Xar bir ma'muriy birlikda qozi, pochta ishlari boshlig'i, xiroj yig'uvchi va boshqa amaldorlar bo'lib, ular viloyatlar noiblariga bo'ysungan. Nishopurda davlatning asosiy xarbiy tayanchi bo'lgan xarbiy kuchlarning shadiyak deb nomlangan davlatning eng asosiy siyosatlaridan biri islomlashtirish siyosati bo'lgan.

Toxiriylar davlatida jamiyat bir qancha ijtimoiy toifa va qatlamlarga ajralgan edi. Ular mulk, martabasi va mansablariga ko'rabit-birlaridan farqlanganlar. Raiyat orasida kashovarz, kishtukorkunanda. Chorakor, barzikor singari ijtimoiy qatlamlar bo'lgan. Yirik va mayda yer egalari dexqon deb yuritilgan. Ijaraga berilgan yerlar muzoraxa deb atalgan. Davlat tomonidan makka safariga-xajga borayotganlarga aloxida g'amxo'rlik qilganlar. Bunday kishilar raboh yoki ibni sabil deb atalgan. Ilgari yirik zadogonlar xisoblangan va bu vaqtda kelib kambag'allashib qolgan kishilar «axli buyutot» deb yuritilgan. Xalifaning buyruq va farmonlarini bajaruvchilar, unga tobe xukmdorlar soxibi xaros deb atalgan.

Toxiriylar davlati boshqaruvida xuquqiy munosabatlar asosan islom dini qonun-qoidalari va ko'rsatmalariga tayangan xolda olib borilgan. Davlatni xuquqiy jixatdan mustaxkamlashga ko'p xarakat qilgan xukmdor Abdullox edi. U barcha soxa va jarayonlarni o'zining maxsus odamlari orqali nazorat qilar va xar qanday qonun buzilishlari uchun javobgar amaldor va mansabdorlarni shafqatsiz jazolardi.

Uning buyrug'iga ko'ra qonunshunoslar suvdan foydalanish, sun'iy sug'orishdagi turli baxslarni hal etish, sug'orish tizimi xaqida «kitob al kuniy» qonunlar to'plami ham yaratilgan va bu narsa to'xtiriylarda xuquqiy munosabatlar va qonunlarning amal qilinishiga katta e'tibor brilganligini ko'rsatadi.

2. Somoniylar davlati davlatchiligi.

Somoniylar davlatining asoschisi Somon qishlog'i oqsoqoli (Balx yoki Termiz yaqinida) Somonxudot avlodlari asos solgan.

Xalifa Ma'mun ularning xizmatlari evaziga Movarounnaxrning viloyatlari xokimligini topshirgan edi. 839-840 yy Nux ibn Asad Isfijobni bosib oldi. So'g'dning bir qismi va Farg'ona xokimligini qo'lga kiritdi. Somoniylar davlatining yuzaga kelishida Axmad ham katta xizmat qildi, uning Nasr, Yaxqub, Asad, Ismoil, Isxoq va Xomid kabi o'g'illari bor edi. 842 yil Nux ibn Asad vafot etgach, Samarqand uning ukalari Axmad va Yaxyo xukmi ostiga o'tdi, keyinchalik xokimlikni Nasr (865-892) davom ettirdi. 856 yil Yaxyo ibn Asad vafotidan so'ng, Choch va Istaravshan xokimligi Axmadning ikkinchi o'g'li Yaxqub qo'lga o'tdi. Keyinchalik bunday tashabbus Ismoil ibn Axmad qo'lga o'tdi va 874 y Buxoro xokimi bo'ldi. Movarounnaxrni birlashtirish tarafdori bo'lgan Nasr ibn Axmad bir qancha xududlarni o'z xokimligiga qo'shib oldi va natijada 875 yil xalifa Muxtamiddan Movarounnaxrni boshqarish uchun yerlik olishga erishdi. Ismoil esa akasiga bo'ysunishni istamadi va 888 y u bilan to'qnashdi va faqatgina Nasr vafotidan so'ng (892) Movarounnaxrning yagona xukmdori bo'lib qoldi. Uning kuchayishidan xavfsiragan xalifa 898 yil Movarounnaxr xokimligidan Ismoilni tushirib, o'rniga safforiylardan Amr ibn Lays tayinlangani xaqida erlik yubordi va bu ikki o'rtada urush kelib chiqishiga olib keldi. 899 va 900 yy to'qnashuvlarda Ismoil g'alabaga erishib, Xurosonni ham o'ziga qo'shib oldi va shu tariqa yirik davlatga aylangan Somoniylar davlati X asr oxirigacha xukm surdi.

Somoniylar xalifalikdagiga o'xshash boshqaruv tizimini o'rnatdilar. Davlat boshlig'i amir bo'lgan. Amirlikning ma'muriy tizimi quydagicha bo'lgan: - dargox (amir saroyi) va devon (davlat idorasi).

Saroydagi eng yuqori mansab xojib ul buzurg va soxibi xaros edi. Davlat boshqaruvi Buxoro Registoni atrofida joylashgan o'nta devon ixtiyorida bo'lgan. Bular quydagilar edi:

Devoni vazir yoki xojayi kalon.

Devoni mustavfiy (moliyaviy ishlar)

Devoni amid. (devoni rasoyil, devoni insho) (Elchilik ishlari)

Devoni soxibshurot (Sipoxiylar va shox saroyini moddiy ta'minoti)

Devoni soxibbarid (Davlat elchilari va xokimlar ustidan maxfiy naz)

Devoni muxtasib (Tosh-tarozu, shariat ishlari nazoratchisi)

Devoni mushrif (Xazina kirim-chiqimi va boshqa davlat ishlari)

Devoni kozi

Devoni ziyo

Devoni mamlakai xos (davlat mulklari boshqaruvchisi)

Barcha devonlarning viloyat. Shaxar va tumanlarda bo'limlari bo'lib, xokimlarga bo'ysungan faqatgina Devoni barid markaziy davlatga bo'ysungan. Shaxarlar maxsus hokimlar tomonidan boshqarilgan. Amaldorlar o'rtasida ruxoniylar, ayniqsa, shayxulislom mavqei baland bo'lgan. Davlat qo'shinlari muntazam va yollanma qo'shnlardan iborat bo'lib, yollanma qo'shinlar maxalliy xokimlar ixtiyorida bo'lgan.

Somoniylar davlati sud ishlari va xuquqiy munosabatlarni amalga oshirish shariatga asoslangan edi. Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan va uni qozikalon, mufti, raislar amalga oshirganlar. Og'ir jazoga loyiq jinoyatchilarni amir va qozikalon sud qilganlar, o'lim jazosi aksariyat xollarda Registon maydonida amalga oshirilgan.

Somoniylar davrida yirik yer egalar-dexqonlarning mavqei ortdi va ular xatto viloyatlar xokimlari darajasigacha ham ko'tarila boshladi. Ziroatchi kadevarlar, ijarachi barzikorlar, qullar qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lsa, xunarmandlar va savdogarlar ham ijtimoiy xayotda faol ishtirok etardi.

Somoniylarda yer egaligi quydagicha shaklda edi: Mulki sultoniylar, xususiy mulk, vaqf mulklari, jamoa mulki. Somoniylar davrida yerlar qaytadan taqsimlandi va

oqibatda yangi yer egaligi shakli paydo bo'ldi. Yer egalarining bu yangi gurux asosan sipoxiylardan chiqqanlar edi. Voxadagi yerlarning asosiy qismi Zarafshondan bosh olgan kanallar orqali sug'orilgan. (Shoxrud, Karmina, Shopurkom, Xarkanrud, Gav, Xitraf, Samjon) Qorako'ldaryo), Paykand, Daymun, Arvon, Navkand, Romiton, Varaxsha, Xama, Xaramkom va boshqalar).

3. Qoraxoniylar davlatchiligi tarixi.

Qoraxoniylar davlatiga X asr o'rtalarida Sotuk Bugroxon (915-955) tomonidan asos solindi.

Qoraxoniylar davlati Yettisuv xududlarida Qorluk davlati (756-940) o'rinda tashkil topdi va 942 bil Sotuk Bugrxon Bolasogunni bosib olgach, yozini xoqon deb e'lon qildi. Qoraxoniylar davlatiga yag'mo va chigil qabilalar ham birlashdilar. Sotuk vaqtidayoq davlat ikki qismga bo'linib ketgan bo'lib, birining poytaxti Bolasogun, ikkinchisining markazi dastlab Tarozi, keyinchalik Koshgar bo'lgan va ularni xoqonlar yoshlariga asosan boshqarganlar. Qoraxoniylar davlati kuchayib bordi va ayni vaqtda inqirozga uchray boshlagan somoniylarga qarshi xarbiy yurishlar uyushitirib, 996 yilda uni mag'lubiyatga uchratdi. 1001 yilda Sulton Maxmud G'aznaviy qoraxoniylar xoni Nasr bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni Qoraxoniylar va G'aznaviylar o'rtasidagi chegara etib belgiladi. Shu tariqa Qoraxoniylar davlati xududlari Qoshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona kabi viloyatlar bilan chegaralandi.

XI asr o'rtalarida tamgachxon unvonini olgan qoraxoniylar Ibrohim ibn Nasr g'arbiy Qoraxoniylar davlati poytaxtini O'zgandan Samarqandga ko'chirdi. 1068 yildan boshlab Ibrohim ibn Nasr o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurashlar boshlanib ketdi va unda Shamsulmulk Abulxasan Nasr ibn Ibrohim (1068-1080) g'alabaga erishdi.

1080 yilda Shamsulmulk vafot etgach, xokimiyat uchun kurash avj oldi va bundan foydalangan saljuqiylar Malikshoh 1089 yilda Movarounnaxrga bostirib kirdi. Buxoro va Samarqand bosib olingach, xon Axmad asir olindi. Malikshoh

Axmad bilan sulx tuzib, uni taxtida qoldirdi, biroq Axmadning saljuqiylarga itoatkorligi uchun 1095 yilda o'ldirishdi.

1102 yilda Qoraxoniylar taxtiga Arslonxon o'tirdi (1102-1130) va saljuqiylardan yarim mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Arslonxon nisbatan norozilik oshgach, u xokimyatni o'g'li Nasrga topshirdi, biroq Nasr fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Arslonxon Marvdan Sulton Sanjarni yordamga chaqirdi va bu imkoniyatdan foydalangan Sanjar 1130 yilda Samarqandni bosib oldi.

XII asr boshlarida Bolasogunni egallagan qoraxitoylar Movarounnaxr ichki xududlariga xujum qilib kelib, 1138 yilda Xo'jandni, 1141 yilda Katvon cho'lida Sulton Sanjar va Samarqand xukmdori Maxmudning qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, Samarqand va Buxoroni egalladilar. So'nggi qoraxoniylar qoraxitoylardan ozod bo'lgan bo'lsada, 1212 yilda ularning oxirgi xukmdori Usmon Muxammad Xorazmshox tomonidan o'ldirildi va davlat Xorazmga qo'shib olindi.

Qoraxoniylar Movarounnaxrni egallagach, bu yerda markazlashgan boshqaruv xokimiyati o'rnini alohida mulk boshqaruvi tizimi egalladi. Xar bir viloyat mahlum siyosiy mavqega ega xolda elikxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi, davlatning oliy xukmdori xoqon, xonlar xoni yoki tamgachxon deb yuritilgan.

Yettisuvdan turib Movarounnaxrni boshqarishning murakkabligi bu yerdagi Samarqand elakxoni mavqeini kuchaytirib yuborgan. Qoraxoniylar saroyida Somoniylarda bo'lganidek bir qancha amaldorlar bo'lsada, imom, sayid, shayx, sadrlarning mavqei kuchli bo'lgan.

Qoraxoniylar davlat boshlig'i lavozimi merosiy xisoblanib, ma'muriy idoralar ikkiga-dargox va devonga bo'lingan. Ulug' xojib lavozimidagi amaldor xoqon va fuqaro o'rtasidagi qushi (xarbiy lageri) xonto'y deb atalgach, bu erda xar doim to'qqizta bayroq xilpirab turgan. Elchilar yalavoch yoki yalafar deb atalgan, davlat el va viloyat xududlariga bo'lingan.

Qoraxoniylarning davlat tepasiga kelishi Movarounnaxr jamiyati xayotida ham o'zgarishlar yasaldi. Alohida mulklar boshqaruvi, ma'muriy idoralar

somoniylar davridagi tartiblarga muvofiq kelar, ijtimoiy mansab va boshqalarda farq katta emasdi. Bu davrda dexqonlar o'zlarining ijtimoiy tuzumdagi xukumronlik mavqeini yo'qotdi. Qoraxoniylar davriga kelib, jamiyatning ijtimoiy bo'g'inlari quydagicha shakilga ega bo'ldi:

elikxon-xoqondan keyingi poonada turuvchi amaldor. U xoqon xonadoniga mansub bo'lib, viloyatning mulk soxibi xisoblangan:

iqtidorlar-qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, martabalariga ko'ra birbirlaridan farq qilganlar

islom dinining peshvolari- momlari, sayyidalar, shayxlar, sadrlar.

Xokimlar, raislar, muxtasiblar va xokazo.

Tariqchilar-ziroatchilarning turkcha nomi.

Xunarmandlar

Savdogarlar

Ko'chmanchilar-chorvadorlar.

Qoraxoniylar davrida oddiy xalq butun deb atalgan. Soliq to'lovchi fuqaro raiyat, qabila boshliqlar bek, savdogarlar sart deb atalgan.

Xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy er-mulklar xisoblangan.

Qoraxoniylarda xuquqiy munosabatlar islom dini an'analariga asoslangan xolda yuritilgan va islom dini peshvolarining mavqei davlatda birmuncha yuqori bo'lgan. Shuningdek, qoraxoniylar ko'chmanchi turkiyqabilalarga xos tartib-qoidalariga ham rioya etganlar manbalarda keltirilgan (Nizomulmulk, Ibn al Asir va boshq).

Shunga qaramay, qoraxoniylar raxbarlari islom dini va shariatga amal qilish bilan o'z davlatlarining xuquqiy asoslarini saqlay olganlar, va unga qattiq rioya etganlar.

1. Xorazmshoxlar davlatida siyosiy tuzum , davlat boshqaruvi va ijtimoiy xayot.

Xorazm davlati o'z mustaqilligiga g'aznaviylar va saljuqiylar xukmronligiga qarshi kurash jarayonida erishdi. Xorazmshoxlar markaziy davlat boshqaruvi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo'lib, unga vazir boshchilik qilgan.

Vazir bevosita shoxga bo'ysungan va uning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- asxob ad-davovin, ya'ni, devon amaldorlarining boshlig'i bo'lib, yuqori mansab soxiblarini ishga tayinlash va bo'shatish bilan shug'ullangan.
- davlat amaldorlariga nafaqa (arzaq) belgilash.
- davlat amaldorlarini xayot uchun zaruriy maxsulotlar bilan ta'minlashni belgilash.
- soliq va xazinani nazorat qilish.
- xukmdorni xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarda rasmiy tanishtirish,
- raiya bilan munosabatlarda vositachilik qilish.
- xukmdorga muntazam xamroxlik qilish, qo'shinga boshchilik qilish.

Vazirliklarda sadr, dastur, xojayi buzurg kabi unvonlar bo'lgan. Xorazm vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, nishopur, Isfaxon, Balx, Xirotdan chiqqan shaxslardan tayinlangan. Xorazmshoxlar saroyida shuningdek, quydagi qator lavozimlar ham mavjud edi:

Xojib ul-kabir yoki xojib ul-xos hukmdor shaxsi bilan bog'liq masalalar va ularga doimiy xamroxlik, eng zarur vazifalarni bajarish bilan shug'ullanganlar.

- Ustozdor-barcha xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor.
- Amir oxur-otxona boshlig'i lavozimi.
- Amir shikor-sultonning ov ishlari boshlig'i.
- Tashtdor, Sharobdor, kissador, choshnigir, davotdor, farrosh, amir al-alam va boshqa unvonlar xorazmshoxlar saroyi boshqaruv tizimini tashkil etgan.

Manbalarda keltirilishicha (Muxammad Bag'dodiy), Xorazmda axolining turli qatlamlari va ular o'rtasidagi tafovutlar o'ziga xos shakllangan:

- Sayyidlar – payg'ambar avlodi sanalib, katta xurmatga sazovor bo'lgan.
- Imomlar va olimlar – ijtimoiy hayotda ancha ustunlikka ega bo'lgan va davlat ishlariga o'zlarining maslahatlari va yo'l – yo'riqlari bilan ta'sir etgan.
- Qozilar va hokimlar – xuquq va tartibot ishlarini nazorat qilgan va amalga oshirganlar.

-Tasavvuf vakillari – faqirona hayot kechirganlar, xalq tomonidan nihoyatda e'zozlangan, hukmdorlar ham ularni hurmat qilganlar va ulardan ko'pincha duo tilaganlar.

-Oqsoqollar - qishloq, kasaba, urug' qabilalari boshliqlari.

-Amaldorlar va sipohiylar.

-G'oziyar – islom dini uchun kurashuvchilar.

Mehnatkashlar qatlami va martabalar o'rtasidagi farqlar somoniylardagi singari edi. Bu davrda ham iqto' yerlari berish davom etgan.

Xulosa.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, IX-XII asrlar O'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos yangi davr hisoblanadi. Bu davrda Mavaraunnahrda bir nechta mustaqil davlatlar mavjud bo'lgan. Ularning har biri alohida o'ziga xos tarzda davlat boshqaruv siyosatini olib borgan bo'lsalar ham ma'lum ma'noda ularning boshqaruv tizimida o'xshashliklar bo'lgan. Bu davlatlarda davlat boshlig'i lavozimi merosiy xisoblanib, ma'muriy idoralar ikkiga dargox va devonga bo'lingan. Dargox bu amir saroyi hisoblanib uning ishlarini boshqaruvchi xojib ul- buzurg hisoblangan. Devon - davlat idorasi hisoblanadi va bu devonlarni Xojayi kalon yoki devoni vazir lavozimidagi shaxs boshqargan. Devonlar soni Somoniylar davlatida o'nta bo'lgan. Barcha devonlarning viloyat. Shaxar va tumanlarda bo'limlari bo'lib, xokimlarga bo'ysungan faqatgina Devoni barid markaziy davlatga bo'ysungan.

Barcha davlatlarda xuquqiy munosabatlar islom dini an'alariga asoslangan xolda yuritilgan va islom dini peshvolarining mavqei davlatda birmuncha yuqori bo'lgan. Shuningdek, qoraxoniylar ko'chmanchi turkiy qabilalarga xos tartib-qoidalarga ham rioya etganliklari manbalarda keltirilgan. Shunga qaramay, qoraxoniylar rahbarlari islom dini va shariatga amal qilish bilan o'z davlatlarining xuquqiy asoslarini saqlay olganlar, va unga qattiq rioya etganlar.

Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan va uni qozikalon, mufti, raislar amalga oshirganlar. Og'ir jazoga loyiq jinoyatchilarni amir va qozikalon sud qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq 1998
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston» 1992
3. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi kontsepsiyasi.g' O'zbekiston tarixi. 1999 yil 1-son.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., Sharq 2000
5. Sagdullaev A. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarqqiyoti. T., «Akademiya» 2000
6. Nizomulmulk. «Siyosatnoma». T., Adolat 1997